



ISTIQBOLLI G'O'ZA TIZMALARINING PAXTA HOSILDORLIGINI O'RGANISH

O.U.Adxamova
Sh.R.Ergasheva

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Q.X.E.S.U. ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalari
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10534059>

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarakteristik strategiyasining 3.3-bandida, ya'ni "Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish" ga muvofiq, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida qishloq xo'jalik ekin maydonlarini maqbullashtirish rejalashtirilgan. Mamlakatimiz halq xo'jaligining muhim sohasi qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi turli qishloq xo'jalik, shu jumladan texnika ekinlari yetishtirish uchun juda qulay mintaqalardan hisoblanadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida ishlovchi xodimlar soni jihatidan qishloq xo'jaligi yetakchi o'rinni egallaydi. Bu tarmoq aholini zarur oziq – ovqat mahsulotlari bilan, sanoatning turli sohalarini esa xom-ashyo bilan ta'minlaydi. Mamlakatimizda har yili taxminan 7 mln. tonnadan ziyod don, 3,4-3,5 mln. tonna paxta, 1,2 mln. tonna kartoshka, 5 mln tonna sabzavot va 1 mln. tonnaga yaqin poliz mahsulotlari yetishtiriladi. Don ekinlari umumiy hosildorligi 40, paxta 30, kartoshka 200, sabzavot 230, poliz 185 sentnerdan oshib ketdi.

Istiqbolli g'o'za tizmalarining paxta hosildorligini, o'rganish uchun Asaka tumanida tuproq iqlim sharoitida joylashgan, istiqbolli navlar qatoriga kiritilgan g'o'za navlari xususiyatlarini o'rganish maqsadida xamda eng maqbullarini ishlab chiqarishga joriy etish uchun tavsiya etishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Shunga ko'ra seleksiya yo'li bilan yaratilgan o'rta tolali istiqbolli g'o'za navlarini o'sishi, rivojlanishi, ko'saklashi va paxta xosildorligini, hamda muayyan tuproq va iqlim sharoitida yoki turli ekologiyoviy sharoitda o'rganish va joriy etish uchun tavsiya etish. Tadqiqotni paxta seleksiyasi va urug'chiligi, yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining Andijon ilmiy-tajriba stansiyasi (PSUEAITI) ning och tusli bo'z tuproqlari sharoitida o'tkazdik. Tajriba natijalari biz o'quv va ilmiy ishlab chiqarish xo'jaligi sharoitida g'o'za tizmalari ustida olib borgan tajribamizdan quyidagi xulosa va takliflarga keldik. Kuzatib o'rganilgan barcha tizmalar xosildorlik bo'yicha nazorat navdan yuqori ko'rsatkichni namoyon qildi. Buning asosiy





sababi, tizmalarda nazorat navga nisbatan ko'saklar soni va vaznining yuqori bo'lganligidan deb tushuntirish mumkin.


Belgi bo'yicha barcha tizmalar nazorat navidan ustun bo'lib chiqdi, ayniqsa 33/04 tizim eng yuqori natijaga erishib nazorat naviga nisbatan 2,0 dona o'simlik ko'p ko'sak to'pladi. 1 avgustda olib borilgan tekshiruvlarda ko'saklar soni bo'yicha kuzatuv ishlarida tizmalar nisbatan nazorat navdan ustun bo'lgan bo'lsa, 1 senyabrdagi kuzatuv ishlari xam xuddi shunday bo'lib chiqdi. Bu esa, tizmalarda hosil elentlarini to'plash va saqlab qolish nazorat navga nisbatan ustun bo'lganligini ko'rsatadi. (1 jadval)

G'o'za tizmalarining o'sishi va rivojlanishida vilt kasalligi bilan zararlanish darajasini ham ko'rib chiqdik. Bu kasallik g'o'zani o'sish va rivojlanishiga salbiy tasir ko'rsatadi va shundan kelib chiqib kasallikni har bir tizmalarda zararlanish darajasini nazorat naviga nisbatan o'rganib, quyidagi ko'rsatkichlarni aniqladik. Nazorat nav S-6524 navi 11,0 %, 33/04 navi 10,5%, 41/04 navi 11,8% va 46/04navi esa 11,3%. Yuqoridagi ko'rsatkichlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, 33/04 navi 10,5% ko'rsatkich bilan nazorat naviga nisbatan 0,5% kam vilt bilan zararlandi. Umuman olganda o'rganilgan barcha tizmalar va nazorat nav vilt bilan kuchli zararlanmadi.

1-jadval

G'o'za tizmalarining o'sishi va rivojlanishi

variantlar №	Andoza va tizmalar	Asosiy poya balandligi, sm			Bir tup o‘simlikdagi ko‘saklar soni, dona			1-Sentyabr kuzatuvi	Vilt bilan zararlanishi %
		1-iyun	1-iyul	1-avgust	Mevalar soni jami. O‘sm.dagi	1-avgust	ko‘saklar		
						Ochilgan gullar soni	umumiysi	ochilgani	
1	S-6524 (Andoza)	33,7	78,7	100,4	10	2	14	6	11,0
2	33/04-tizma	31,4	82,4	104,9	13	3	16	7	10,5
3	41/04-tizma	31,6	78,0	101,4	11	2	15	5	11,8





4	46/04-tizma	36,0	78,2	100,0	10	1	14	6	11,3
---	-------------	------	------	-------	----	---	----	---	------

2-jadval

G' o' za tizmalarining paxta xosildorligi, s/ga

Variant lar №	Andoza va tizmalar	O'rtacha	S dan farqi
1	S-6524 (Andoza)	30,8	
2	33/04-tizma	32,7	+1,9
3	41/04-tizma	30,9	+0,1
4	46/04-tizma	32	+1,2

$$NSR_{05} = +0,91 \text{ s/ga}$$

Hosildorlikni aniqlashda birinchi navbatda o'rganilayotgan tizmalarni qaytariqlar bo'yicha ochilgan ko'saklarni 11 m. dagi paxta vaznini aniqlab oldik va har bir tizmadagi ochilmagan ko'saklarni sanab o'rtachasini chiqarib kg/ga aylantirib oldik. Hosil bo'lgan chigitli paxtani qaytariqlar bo'yicha o'rtachasini olib hosildorlikni tizmalar bo'yicha aniqlab oldik va quyidagi ko'rsatkichlarga erishdik: Nazorat S-6524 navi 30,8 s/ga , 33/04 tizim 32,7 s/ga , 41/04 tizma 30,9 s/ga va 46/04tizma esa 32 s/ga. O'rganilayotgan tizmalarimiz nazorat naviga nisbatan yuqori natijadagi hosildorlikni berdi. Eng yuqori ko'rsatkichdagi hosil (32,7s/ga) 33/04 tizmasida kuzatilib, nazorat naviga nisbatan 1,9 s/ga qo'shimcha hosil olindi. Buning asosiy sababi o'rtacha bir tup o'simlikdagi ko'saklar sonining va bitta ko'sakdan chiqqan paxtaning vaznini yuqoriligidan deb tushuntirish mumkin. Qolgan tizmalarimizda ham xosildorlikning ushbu tuzilish elementlari yuqoriligi xisobiga hosildorlik nazoratga nisbatan ortganligi kuzatildi. Kuzatib o'rganilgan barcha tizmalar xosildorlik bo'yicha nazorat





navdan yuqori ko'rsatkichni namoyon qildi. Buning asosiy sababi, tizmalarda nazorat navga nisbatan ko'saklar soni va vaznining yuqori bo'lganligidan deb tushuntirish mumkin.

Tajribada o'rganilgan tizmalar nazorat navidan asosiy xo'jalik belgilari bo'yicha ustunligini namoyon qildi. Ushbu tizmalarda seleksiya ishini davom ettirib nav darajasiga ko'tarishni va yangi navlar chiqarishda amaliy seleksiya uchun boshlang'ich ashyo sifatida foydalanishni tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamov X., Abdumalikov U., Zaparov Z., Tillaboev A., Toshpo'latov A. Yaratilgan yangi g'o'za tizimlarining xo'jalikka foydali belgilarini aniqlash. Innovatsiya: fan, ta'lim, texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqololar to'plami. Sbornik nauchno metodicheskix statiy №1. Andijon. 2018 y. 121-123-b.
2. Egamov X., Abduraxmonov I., Baxromov Sh. G'o'zaning kasallik va zararkunandalarga bardoshli navlarni yaratishga birlamchi asho'lar. Agrar sohani barqaror rivojlantirishda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi. —2020 yil Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyatni rivojlantirish yili||ga bag'ishlangan professor – o'qituvchi va o'sha olimlarning III-masofaviy ilmiy- amaliy konferensiyasi materiallari to'plami 21 may 2020 yil. Toshkent, 2020 yil 189-181 b.
3. Miraxmedov F.Sh., Abdumalikov U.Z., Abdumalikov I., Tillaboev A. Минеральные удобрения и их рациональное применение на орошаемых землях Узбекистана // Интеграционные процессы мирового научно-технологического развития, Белгород, 2017. S. 19-21.
4. Kimsanov I.X., Kodirov O.A., Raximov A.D., Abdumalikov U.Z. Изучение морфологических и хозяйственно-сенных признаков новых сортов хлопчатника в условиях андижанского viloyata// Приоритеты инновационно-технологического развития в условиях глобализации, Белгород, 2019. S. 24-27.

